



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No 1

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

**1-jild
1-son
yanvar, 2026**

**January, 2026
Volume 1
Number 1**

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал**

**INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Кариш, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каришбоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DCs), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DCs), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



УДК 614:338.46

<https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.1.1.2026.18>

O‘ZBEKISTON SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK VA XUSUSIY SEKTOR RIVOJLANISHINING INSTITUTIONAL JIHATLARI

G.O.Otabekova

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА И ЧАСТНОГО СЕКТОРА В СИСТЕМЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Г.О.Отабекова

INSTITUTIONAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP AND THE PRIVATE SECTOR IN UZBEKISTAN’S HEALTHCARE SYSTEM

G.O.Otabekova

Received: January 20, 2026 Revised: January 21, 2026 Accepted: January 22, 2026 Published: February 1, 2026

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlarini rivojlantirish jarayonlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda sog‘liqni saqlash tizimi rivojlanishining “ikkiyoqlama” dinamikasi — institusional islohotlardagi ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda saqlanib qolayotgan tarkibiy va institusional cheklovlar — aniqlangan.

Maqolada xususiy tibbiy muassasalar sonining jadal o‘sishi, ayrim ixtisoslashgan xizmatlarda xususiy sektorning ustun mavqega ega bo‘lishi hamda statsionar segmentdagi ulushining ortishi tahlil qilingan. Shu bilan birga, davlat xarajatlarining nisbatan past darajasi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlar ulushining yuqoriligi, majburiy tibbiy sug‘urta tizimining to‘liq joriy etilmagani, hududiy nomutanosibliklar va kadrlar taqchilligi sohaning barqaror rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan asosiy omillar sifatida ko‘rsatib berilgan. Maqola natijalari sog‘liqni saqlash sohasida davlat siyosati, institusional islohotlar va xususiy sektor faoliyatini muvofiqlashtirish orqali milliy sog‘liqni saqlash tizimini barqaror rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash tizimi, xususiy sektor, davlat-xususiy sheriklik, tibbiy xizmatlar bozori, institusional islohotlar, tibbiy sug‘urta, hududiy nomutanosiblik, raqamli tibbiyot, inson kapitali.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретических и практических позиций проанализированы процессы развития частного сектора и механизмов государственно-частного партнёрства (ГЧП) в системе здравоохранения Узбекистана. В ходе исследования выявлена «двойственная» динамика развития системы здравоохранения, характеризующаяся сочетанием позитивных институциональных преобразований с сохраняющимися структурными и институциональными ограничениями.

В статье рассмотрены ускоренный рост числа частных медицинских учреждений, доминирующее положение частного сектора в ряде специализированных медицинских услуг, а также увеличение его доли в стационарном сегменте. Вместе с тем показано, что относительно низкий уровень государственных расходов, высокая доля прямых платежей населения, неполная реализация системы обязательного медицинского страхования, региональные диспропорции и дефицит кадров остаются ключевыми факторами, сдерживающими устойчивое развитие отрасли. Результаты исследования позволяют сформулировать научно-практические выводы по обеспечению устойчивого развития национальной системы здравоохранения на

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

Qarshi davlat texnika universiteti



основе согласования государственной политики, институциональных реформ и деятельности частного сектора.

Ключевые слова: система здравоохранения, частный сектор, государственно-частное партнёрство, рынок медицинских услуг, институциональные реформы, медицинское страхование, региональные диспропорции, цифровая медицина, человеческий капитал

Abstract. This article analyzes the development processes of the private sector and public-private partnership (PPP) mechanisms in the healthcare system of Uzbekistan from both theoretical and practical perspectives. The study identifies a “dual” development dynamic characterized by the coexistence of positive institutional reforms and persistent structural and institutional constraints.

The paper examines the rapid growth in the number of private medical institutions, the dominant position of the private sector in several specialized medical services, and the increasing share of private providers in the inpatient care segment. At the same time, relatively low levels of public healthcare expenditure, a high share of out-of-pocket payments, the incomplete implementation of mandatory health insurance, regional disparities, and shortages of medical personnel are identified as key factors limiting the sustainable development of the sector. The findings provide a basis for formulating policy-oriented conclusions aimed at ensuring the sustainable development of the national healthcare system through the coordination of public policy, institutional reforms, and private sector activity.

Keywords: healthcare system, private sector, public-private partnership, healthcare services market, institutional reforms, health insurance, regional disparities, digital health, human capital.

■ KIRISH

Keyingi yillarda O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida xususiy tibbiyot sektori barqaror o‘shish tendentsiyasini namoyon etmoqda. Xususan, 2017 yildan buyon xususiy tibbiy klinikalar soni qariyb uch barobarga oshgani ushbu sohada tadbirkorlik faoliyatiga bo‘lgan qiziqishning ortganini hamda bozor mexanizmlarining faollashayotganini ko‘rsatadi. Bu jarayon, avvalo, aholining tibbiy xizmatlarga bo‘lgan talabining o‘zgarishi, xizmatlar sifatini oshirishga intilish va davlat sektori imkoniyatlarining cheklanganligi bilan izohlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev sog‘liqni saqlash sohasida olib borilayotgan islohotlar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida [1] tibbiyot sohasida xizmatlar sifatini yaxshilash, dori iste‘molini tartibga solish va tibbiy ta‘lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilandi, sog‘liqni saqlashga ajratayotgan mablag‘lar sezilarli darajada oshirilishi ta‘kidlandi.

Davlat tomonidan sog‘liqni saqlash sohasida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat investitsiyalarni jalb etish, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlarini keng joriy etish, shuningdek, pulli tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali amalga oshirilmoqda. Mazkur chora-tadbirlar sohaga xususiy kapital kirib kelishini rag‘batlantirish, tibbiy infratuzilmani modernizatsiya qilish va xizmatlar turini diversifikatsiyalashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, xususiy tibbiyot sektori rivojiga to‘sqinlik qilayotgan bir qator institusional muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, litsenziyalash va ruxsat berish jarayonlarining murakkabligi, meyoriy-huquqiy bazaning etarli darajada barqaror emasligi, moliyalashtirish manbalariga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda kadrlar tayyorlash tizimidagi muammolar sohaning to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarishga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu holat xususiy tibbiyot sohasida tadbirkorlikni tizimli ravishda o‘rganish va uning rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

■ ADABIYOTLAR SHARHI

Budjet resurslarining cheklanganligi hamda sog‘liqni saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarurati sharoitida davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlaridan foydalanish alohida ilmiy va amaliy dolzarblik kasb etmoqda. DXSH davlatning moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlarini xususiy sektorning investitsiya salohiyati hamda boshqaruv tajribasi bilan uyg‘unlashtirish imkonini berib, hududiy darajada tibbiy xizmatlar sifati va ularning aholi uchun ochiqqligini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, sog‘liqni saqlash tizimida DXSH mexanizmlaridan foydalanish infratuzilmaviy loyihalarni tezkor amalga oshirish, resurslardan samarali foydalanish va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash imkonini beradi [6;7].

Sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni nazariy jihatdan anglash institusional, shartnomaviy va tizimli yondashuvlar doirasida shakllanadi. Institusional yondashuv DXShni davlat organlari, investorlar va tibbiy tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik qoidalarining o‘zgarishi sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv doirasida huquqiy-meyoriy bazani shakllantirish, ishtirokchi tomonlar manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizmlari hamda institusional to‘siqlarni kamaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi [4;5]. Shu nuqtai nazardan, DXSH nafaqat investitsiyaviy instrument, balki institusional transformatsiya vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Tibbiy xizmatlar iqtisodiy mohiyati jihatidan ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, ular insonlarning sog‘lig‘ini saqlash va tiklashga qaratilgan individual ehtiyojlarini qondiruvchi tovarlik belgilarini namoyon etsa, ikkinchi tomondan, yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan jamoat nemoddiy ne‘mati sifatida qaraladi. Shu bois tibbiy xizmatlarga ham jamoat, ham individual xususiyatlar immanent tarzda xos bo‘lib, bu holat sog‘liqni saqlash sohasida bozor mexanizmlarini qo‘llashni murakkablashtiradi [1].

Shuningdek, tibbiy xizmatlar sifati ko‘p jihatdan noiqtisodiy omillar bilan belgilanadi. Amaliyotda iste‘molchilar ko‘p hollarda ko‘rsatilgan tibbiy xizmat sifatiga darhol va aniq baho berish imkoniyatiga ega



emaslar. Shu sababli tibbiy xizmatlar iqtisodiy adabiyotlarda “ishonchli ne’matlar” (credence goods) toifasiga kiritiladi. Mazkur atama ilmiy muomalaga ilk bor F. Nelson tomonidan kiritilgan bo’lib, u sifat ko’rsatkichlarini baholash juda yuqori transaksion xarajatlar bilan bog’liq bo’lgan tovar va xizmatlarni shu tarzda tavsiflagan [3]. Tibbiy xizmatlar bilan bir qatorda konsalting, ta’lim va sug’urta xizmatlari ham ishonchli ne’matlarga xos namuna sifatida qaraladi.

Ushbu nazariy xulosalar sog’liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etishda institusional muhitni takomillashtirish, shartnomaviy munosabatlarni aniq belgilash va xizmat sifati ustidan samarali monitoring tizimini shakllantirish zarurligini ko’rsatadi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O’zbekiston sog’liqni saqlash tizimida xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlarini rivojlantirish jarayonlari kompleks va tizimli yondashuv asosida o’rganildi. Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy nazariya, institusional tahlil va amaliy ma’lumotlarni uyg’unlashtirishga qaratilgan bo’lib, bir nechta o’zaro bog’liq usullar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqot davomida statistik, tizimli-analitik, abstrakt tahlil, solishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

O’zbekiston sog’liqni saqlash tizimiga bag’ishlangan zamonaviy tadqiqotlar uning rivojlanishida “ikkiyoqlama” dinamika mavjudligini qayd etadi: institusional islohotlarda sezilarli ilgarilash kuzatilgani bilan birga, ayrim tarkibiy cheklovlar saqlanib qolmoqda. Jahon sog’liqni saqlash tashkilotining Yevropa observatoriyasi tomonidan tayyorlangan yangilangan tahliliy sharhlarda mazkur model asosan soliqlar hisobiga moliyalashtiriladigan, bazaviy tibbiy yordam paketini o’z ichiga olgan tizim sifatida tavsiflanadi. Biroq, davlat xarajatlarning nisbatan past darajada ekani (2021 yilda aholi jon boshiga xarid qobiliyati pariteti bo’yicha taxminan 673 AQSH dollari) hamda to’g’ridan-to’g’ri to’lovlar ulushining yuqoriligi kam daromadli xo’jaliklar uchun tibbiy xizmatlardan foydalanishda jiddiy to’siqlarni shakllantirmoqda [8]. Ushbu tadqiqotlar so’nggi ikki o’n yillikda bazaviy xizmatlar bilan qamrov darajasi yaxshilanganini qayd etgan holda, barcha hayotiy zarur tibbiy xizmatlar va dori vositalari to’liq qamrab olinmaganini, shuningdek, moliyaviy himoya darajasi hali ham cheklanganligini ta’kidlaydi.

Xususiy sektorga oid adabiyotlarda tibbiyot sohasida tadbirkorlikning jadal o’sishi hujjatli tarzda tasdiqlangan. Xususan, xususiy tashkilotlarning sog’liqni saqlash tizimidagi ulushi qariyb 30 foizga etgan bo’lib, ularga umumiy koyka fondining taxminan 35 foizi to’g’ri kelmoqda. Ayrim ixtisosliklar bo’yicha xususiy provayderlar de-fakto ustun mavqeni egallagan: stomatologiya xizmatlarining taxminan 91 foizi, LOR xizmatlarining 70 foizi va oftalmologiya xizmatlarining 60 foizi xususiy sektor hissasiga to’g’ri keladi. Shu bilan birga, 2019–2024 yillar davomida xususiy tibbiy muassasalarning koyka fondi deyarli ikki barobarga oshgani statsionar segmentning barqaror kengayib

borayotganidan dalolat beradi [9]. Biroq mualliflar hududlar kesimida xizmat sifati va infratuzilmaning notekisligi, shuningdek, standartlashtirish etarli darajada ta’minlanmagan sharoitda bemorlar xavfsizligi bilan bog’liq risklar mavjudligini ham ta’kidlaydilar.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) masalalariga bag’ishlangan tadqiqotlarda loyiha siklining institusionalashuvi qayd etilmoqda: Moliya vazirligi huzurida Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi tashkil etildi, xalqaro tashkilotlar (XVJ, Jahon banki, YETTB) hisobotlarida esa, sog’liqni saqlash sohasidagi loyihalarni ham o’z ichiga olgan DXSH bitimlari portfelining kengayib borayotgani ta’kidlanadi. Xalqaro valyuta jamg’armasi baholashlariga ko’ra, 2023 yilda O’zbekistonda umumiy qiymati taxminan 1,6 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan oltita DXSH loyihasi imzolangan [10]. Shu bilan birga, ekspertlar loyiha oldi tayyorgarligining sifati oshirish, risklarni shaffof taqsimlash va shartnomalar ijrosi ustidan samarali monitoringni kuchaytirish zarurligini uqtiradilar.

Muhim muammolar qatorida hududiy nomutanosibliklar va kadrlar taqchilligi saqlanib qolmoqda. Tahliliy sharhlar va rasmiy ma’lumotlar xususiy tibbiy xizmatlar hamda infratuzilmaning asosan Toshkent shahri va yirik markazlarda jamlanganini, qishloq hududlarida esa taklif cheklanganligini ko’rsatadi. Bu holat poytaxt klinikalariga tushayotgan yuklamani oshirib, “bemorlar oqimi”ni rag’batlantiradi. Tavsiya etilayotgan echimlar sifatida periferiya hududlari uchun manzilli soliq va investitsiya imtiyozlarini joriy etish, teletibbiyot va tarmoqli xizmat ko’rsatish modellarini rivojlantirish, shuningdek, tibbiy kadrlarni tayyorlash va ularni hududlarda ushlab qolishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish ko’rsatilmoqda.

Nihoyat, tibbiyot sohasida raqamli transformatsiya va tadbirkorlikka bag’ishlangan tadqiqotlar soni ham ortib bormoqda. Ushbu ishlar tibbiy xizmatlar marketingi, elektron tijorat, elektron hisob yuritish va tahliliy tizimlarni joriy etish masalalarini qamrab olgan holda, raqamlashtirishni samaradorlik va xizmat sifati oshishining multiplikatori sifatida baholaydi. Ayni paytda, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash, tizimlar o’zaro muvofiqligini (interoperabellik) ta’minlash hamda xodimlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi alohida ta’kidlanadi. Postsovet makoni bo’yicha umumiy mintaqaviy tahlillar esa O’zbekistonning ushbu yo’nalishdagi trayektoriyasini qo’shni mamlakatlar tajribasi bilan taqqoslab, uni kengroq kontekstda yoritadi.

So’nggi yillarda O’zbekistonda sog’liqni saqlash sohasida xususiy sektorning rivojlanishi barqaror o’sish tendensiyasi bilan tavsiflanmoqda. Xususan, 2017 yilda mamlakatda taxminan 3,5 mingta xususiy tibbiy muassasa faoliyat yuritgan bo’lsa, 2024 yil oxiriga kelib ularning soni qariyb 9 mingtaga etdi, ya’ni deyarli uch barobarga oshdi. Shu bilan birga, xususiy sektor ayrim yo’nalishlarda ustun mavqeni egalladi: stomatologiya xizmatlarining 91 foizi, otorinolaringologiya (LOR) xizmatlarining 70 foizi hamda oftalmologiya xizmatlarining 60 foizi aynan xususiy tibbiy muassasalar hissasiga to’g’ri kelmoqda.

Mazkur o’sish tibbiy xizmatlar sohasining iqtisodiyotga qo’shayotgan hissasining ortishi bilan birga



kechmoqda. Jumladan, 2025 yilning dastlabki besh oyida ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar hajmi 7,4 trln so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27 foizga yuqori bo'ldi. Bundan tashqari, xususiy tibbiy muassasalar mamlakat kuyka fondining taxminan 35 foizini, ya'ni 42,7 mingga yaqin o'rinni ta'minlab, statsionar tibbiy yordam ko'rsatishda ularning salmoqli o'rniga dalolat qiladi.

Shu bilan birga, ijobiy dinamikaga qaramasdan, bir qator institutsional to'siqlar saqlanib qolmoqda. Xususan, litsenziyalash va xizmat sifati standartlashuvi sohasidagi muammolar hanz dolzarb hisoblanadi: xususiy klinikalar uchun ruxsat etilgan ixtisosliklar soni taxminan 50 tadan 225 tagacha kengayganiga qaramasdan, xizmat sifati hamda infratuzilmaning belgilangan standartlarga mosligi hududlar bo'yicha bir xil emas. Jiddiy cheklovlardan yana biri tibbiy sug'urta tizimining etarli darajada rivojlanmaganligidir: ixtiyoriy tibbiy sug'urta dasturlari aholining 0,1 foizidan kam qismini qamrab olgan bo'lib, majburiy tibbiy sug'urta tizimi esa hali to'liq joriy etilmagan.

Qo'shimcha muammo sifatida tibbiy xizmatlarning hududiy jihatdan yuqori darajada markazlashuvi namoyon bo'ladi. Xususiy klinikalarning aksariyati Toshkent shahri va yirik viloyat markazlarida jamlangan bo'lib, qishloq hududlarida tibbiy xizmatlar bilan qamrov darajasi pastligicha qolmoqda. Bu holat shahar klinikalariga tushayotgan yuklamani oshirib, qishloq aholisining sifatli tibbiy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Umuman olganda, O'zbekistonda xususiy sektorning o'sishi investitsiyalarning ko'payishi va tibbiy xizmatlar turlarining kengayishi bilan birga kechib, tibbiy yordamning sifat va ochiqqligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa stomatologiya, oftalmologiya va LOR amaliyoti kabi yo'nalishlarda xususiy klinikalar davlat tizimini samarali ravishda to'ldirib kelmoqda. Biroq xususiy tibbiyot muassasalarining poytaxt va yirik shaharlarda haddan tashqari jamlanishi hududiy nomutanosiblikni kuchaytirib, qishloq aholisi imkoniyatlarini cheklamoqda.

Shuningdek, majburiy tibbiy sug'urta tizimining yo'qligi sog'liqni saqlash sohasida barqaror moliyalashtirish modelini shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda hamda kam ta'minlangan aholi qatlamlarining sifatli tibbiy xizmatlarga kirishini cheklaydi. Xizmatlar sifatining etarli darajada standartlashtirilmagani va uning bir xil emasligi bemorlar xavfsizligi uchun qo'shimcha risklarni yuzaga keltiradi, tibbiy kadrlar taqchilligi esa sohaning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur muammolarni hal etish tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Jumladan, institutsional islohotlar tibbiy sug'urta modelini joriy etish, sifat va litsenziyalashning yagona standartlarini belgilash, soliq imtiyozlari va investitsiya rag'batlari orqali hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, tibbiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishga qaratilmog'i lozim. Faqat ushbu omillarning uyg'unligi sharoitidagina xususiy sektor milliy sog'liqni saqlash tizimining

barqaror rivojlanishida to'laonli drayverga aylanishi mumkin.

■ XULOSA VA TAKJLIFLAR

Olib borilgan tahlillar O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishida murakkab va "ikkiyoqlama" dinamika shakllanganini ko'rsatadi. Bir tomondan, so'nggi yillarda institutsional islohotlar faollashgan, xususiy sektorning ishtiroki kengaygan hamda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlari amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Xususiy tibbiy muassasalar sonining jadal o'sishi, ayrim ixtisoslashgan xizmatlarda ularning ustun mavqega ega bo'lishi va statsionar segmentdagi ulushining ortishi sog'liqni saqlash sohasida tadbirkorlik faoliyatining barqaror tendensiyaga aylanganini tasdiqlaydi.

Ikkinchi tomondan esa, sohada bir qator tarkibiy va institutsional cheklovlar saqlanib qolmoqda. Davlat xarajatlarning nisbatan past darajada ekanini, to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar ulushining yuqoriligi, majburiy tibbiy sug'urta tizimining to'liq joriy etilmagani hamda hududiy nomutanosibliklar aholining, ayniqsa kam daromadli qatlamlarning, sifatli tibbiy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini cheklamoqda. Shu bilan birga, xizmatlar sifati va infratuzilmaning hududlar kesimida bir xil emasligi, standartlashtirish darajasining etarli emasligi va kadrlar taqchilligi bemorlar xavfsizligi hamda tizim barqarorligi uchun qo'shimcha xavflar yuzaga keltirmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik sohasida institutsional infratuzilmaning shakllanayotgani, DXSH loyihalari portfelining kengayib borayotgani ijobiy holat sifatida baholanadi. Biroq, mavjud tahlillar DXSH mexanizmlaridan foydalanish samaradorligi loyiha oldi tayyorgarligi sifati, risklarni taqsimlash shaffofligi va shartnomalar ijrosini monitoring qilish tizimiga bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, xususiy sektor va DXSH mexanizmlari O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilishda muhim iqtisodiy va institutsional resurs hisoblanadi. Biroq ularni barqaror rivojlanish drayveriga aylantirish uchun tizimli, kompleks va nazariy jihatdan asoslangan yondashuv talab etiladi.

Fikrimizcha, O'zbekiston sharoitida tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishda quyidagi jihatlar e'tibor qaratish lozim:

1. Sog'liqni saqlashda DXShni institutsional transformatsiya mexanizmi sifatida talqin qilish. DXSH faqat investitsiya jalb etish vositasi emas, balki davlat va xususiy sektor o'rtasidagi institutsional munosabatlarni qayta shakllantiruvchi tizimli mexanizm sifatida qaralishi lozim. Bu yondashuv DXShni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy institutlar majmuasi sifatida tahlil qilishni taqozo etadi.

2. Tibbiy xizmatlarni "aralash ne'mat" sifatida modellashtrish. Tibbiy xizmatlarning jamoat va individual xususiyatlari mavjudligini hisobga olgan holda, sog'liqni saqlash sohasida bozor mexanizmlari va davlat tartibga solishining optimal uyg'unligini nazariy jihatdan asoslash zarur. Bu yondashuv xususiy sektor faoliyatini ijtimoiy maqsadlar bilan muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.



3.DXSH va tibbiy sug'urta o'zaro bog'liq tizim sifatida qaralishi. Nazariy jihatdan DXSH mexanizmlarini majburiy tibbiy sug'urta tizimi bilan uyg'un holda rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilishi lozim. Sug'urta tizimi moliyaviy barqarorlikni ta'minlasa, DXSH xizmatlar sifati va infratuzilmani rivojlantirishda multiplikativ ta'sir ko'rsatadi.

4.Hududiy nomutanosibliklarni kamaytirishga qaratilgan DXSH modellarini takomillashtirish. Nazariy modellarda DXSH loyihalarini hududlar kesimida differentsiatsiyalash, ya'ni qishloq va periferiya hududlari uchun alohida rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish zarur. Bu yondashuv sog'liqni saqlash xizmatlarining hududiy tengligini ta'minlashga xizmat qiladi.

5.Raqamli transformatsiyani DXShning funksional elementi sifatida qarash. Raqamli tibbiyot, teletibbiyot va elektron boshqaruv tizimlari DXShning mustaqil yo'nalishi emas, balki uning samaradorligini oshiruvchi funksional komponenti sifatida nazariy jihatdan asoslanishi lozim.

6.Inson kapitaliga yo'naltirilgan DXSH konsepsiyasini ishlab chiqishi. Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashni DXSH doirasidagi investitsiya obyekti sifatida qarash, sog'liqni saqlash sohasida inson kapitalini rivojlantirishning nazariy modelini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Gulbadan Otabek qizi Otabekova – Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktoranti / Г.О. Отабекова — базовый докторант Каршинского государственного технического университета / G.O.Otabekova — PhD Doctoral Candidate, Karshi State Technical University
gulbadan.otabekova@mail.ru
 ORCID ID [0009-0008-4672-3139](https://orcid.org/0009-0008-4672-3139)

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Mirziyoyev SH.M. Tibbiyot sohasidagi ishlar tahlil qilinib, dolzarb vazifalar belgilandi. https://president.uz/uz/lists/view/8113?utm_source.

2. Arrow, K.J. (1963). *Uncertainty and the Welfare Economics of Medical Care*. American Economic Review, 53(5), 941–973.

3. Nelson, P. (1970). *Information and Consumer Behavior*. Journal of Political Economy, 78(2), 311–329.

4. North, D.C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge University Press.

5. Torchia, M., Calabrò, A., Morner, M. (2013). *Public-Private Partnerships in the Health Care Sector*. Public Management Review, 15(2), 236–261.

6. Roehrich, J.K., Lewis, M.A., George, G. (2014). *Are public-private partnerships a healthy option?* Social Science & Medicine, 113, 110–119.

7. World Bank (2017). *Public-Private Partnerships Reference Guide*. Washington, DC.

8. https://eurohealthobservatory.who.int/publications/i/health-systems-in-action-uzbekistan-2024?utm_source. Health systems in action: Uzbekistan.

9. <https://frank.uz/uz/yangiliklar/ozbekistonda-tibbiy-xizmatlar-bozorining-35-foizini-xususiy-sektor-nazorat-qiladi/>.

10. Международный валютный фонд. Республика Узбекистан: отдельные вопросы: доклад МВФ по стране № 25/144 / подготовлено сотрудниками Международного валютного фонда; дата завершения 30 мая 2025 г. — Вашингтон : International Monetary Fund, 2025. — 50 с. — (IMF Country Report; No. 25/144). PDF. Режим доступа: <https://www.imf.org/-/media/files/publications/cr/2025/russian/1uzbra2025002-source-pdf.pdf>

11. Khamraeva S. N., Alimova M. Y. Scientific and Theoretical Foundations of Social Infrastructure Development. – 2023.

12. Хамраева С.Н., Отабекова Г. Основы формирования предпринимательства на рынке медицинских услуг // Экономика и социум. – 2025. – №. 9-1 (136). – С. 777-780.

13. Хамраева С.Н., Отабекова Г. Теория государственно-частного партнерства в сфере медицинских услуг // Экономика и социум. – 2025. – №. 9-1 (136). – С. 781-785.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz